МОДЕРНИЗАЦИЯ ОСВЕЩЕНИЯ САЛОНОВ ВАГОНОВ МЕТРОПОЛИТЕНА ПУТЕМ ЗАМЕНЫ ЛАМП НАКАЛИВАНИЯ ЛБ-40 (ЛБ-36) НА СВЕТОДИОДНЫЕ LED-ЛАМПЫ	934
<i>Файзуллаев Асомитдин Аловитдинович, Нематов Эркин Хамраевич, Пирназаров Шохрух Холмурод угли</i>	
HUDUDYIY BARQAROR O'SISHDA INKLYUZIV IQTISODIY MEKANIZMLARNING ROLI	939
<i>Xamroqulov M.J.</i>	
UZBEKISTAN'S HIGHER EDUCATION SYSTEM STRENGTHENS ITS POSITION ON THE INTERNATIONAL STAGE.....	944
<i>Umarov Diyor Ravshanovich</i>	
YANGI TAKOMILLASHTIRILGAN PAXTA SEPARATORINI KORXONADA SINOV JARAYONIDAN O'TKAZISH.....	949
<i>Raximov Akbar Xolmurodovich</i>	
KICHIK BIZNESNI MOLIYALASHTIRISHNING OSIYO DAVLATLARI TAJRIBALARI: TAHLILY YONDASHUV	953
<i>Annaklichev Saxi Saparmuxamedovich</i>	
КИНЕТИЧЕСКАЯ АРХИТЕКТУРА НА ПРИМЕРЕ ДИНАМИЧЕСКИХ ФАСАДОВ	958
<i>Хаитов Суннатжон Истамович</i>	
TIJORAT BANKLARIDA MARKETING FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH VA UNING AMALIY IMKONIYATLARI.....	963
<i>Ibragimova Shahlo Alimbayevna</i>	
ЗАКОНОМЕРНОСТИ ДЕСУЛЬФУРАЦИИ МЕТАЛЛА ШВА В ЗАВИСИМОСТИ ОТ СОСТАВА ШЛАКООБРАЗУЮЩЕЙ ОСНОВЫ ФЛЮСОВ	969
<i>Абралов Музаффар Махмудович</i>	
РОЛЬ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА И ИННОВАЦИОННОЙ МОДЕРНИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ	975
<i>Бахрамов Зиядулла Баходирходжаевич</i>	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	979
<i>Yuldasheva Mexrunisa Qasimjan qizi</i>	
OLIV TA'LIM SOHASINI DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA TRANSFORMATSIYA QILISHNING INSTITUTSIONAL VA ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI	984
<i>Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li</i>	



XORIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONDA DAVLAT AKTIVLARI BO'YICHA INTERAKTIV MA'LUMOTLAR BAZASINI YARATISH ORQALI BUDJET XARAJATLARINI TAHLIL QILISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH.....	989
Dilshod Pulatov, Gulzara Kaxxarova	
TEMIR YO'L TRANSPORTINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	994
Raximov Xasan Shukurjonovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI	1000
Yuldashev Doniyor Tairovich	
PENSIYA JAMG'ARMALARIDA HISOBNI TASHKIL ETISH VA XARAJATLAR SMETASI IJROSI BO'YICHA HISOBOTI TAHLILI	1005
Nurmanov Karjavbay Tilevbaevich, Nurmanov Din-Axmed Tilevbaevich	
MINTAQA SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	1011
Axmedova Xumora Ibroxim qizi	
ELEKTR MARKAZLASHTIRISH TIZIMIDAGI BOSHQARISH VA NAZORAT RELELI BLOKINI (P62) ZAMONAVIY, KONTAKTSIZ ELEMENTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH HAMDA UNING MATEMATIK MODELINI ISHLAB CHIQUISH	1015
Xujamkulov Eldor G'ayratjon o'g'li	
KLASTERLAR FAOLIYATIDA DAVLAT QO'LLAB-QUVVATLASHI VA INVESTORLAR ROLI	1026
Karimova Nilufar Sadriddin qizi	
ИССЛЕДОВАНИЯ И РАЗРАБОТКИ ШЛАКООБРАЗУЮЩЕЙ ОСНОВЫ ПОКРЫТИЙ ЭЛЕКТРОДОВ ДЛЯ ИЗНОСОСТОЙКОЙ НАПЛАВКИ НА БАЗЕ МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВЫХ РЕСУРСОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	1030
Садыков Жахонгир Насырджанович	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA QURILISH SANOATINING INVESTITSION JOZIBADORLIGI	1039
Boltayev Umidjon Talant o'g'li	
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФРАКРАСНЫХ ДАТЧИКОВ И ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В КОНТРОЛЕ КАЧЕСТВА ЗЕРНОВЫХ ПРОДУКТОВ	1044
Мухамедханов Улугбек Тургудович	
MINTAQA IQTISODIYOTINING IQTISODIY RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1049
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA SUN'IY INTELLEKT VA BIG DATA ASOSIDA INNOVATSION XIZMATLARNI JORIY ETISH	1054
Nuriddinov Ziyovuddinxon Zuxriddin o'g'li	
ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЕ УПРАВЛЕНИЕ ПРОЦЕССАМИ РАЗДЕЛЕНИЯ НА ОСНОВЕ БАЗ ЗНАНИЙ И ЦИФРОВЫХ МОДЕЛЕЙ	1059
Абдуллева Камола Рустамовна	
MATERIALLARNI MURAKKAB YASSI TRAEKTORIYALAR BO'YICHA DEFORMASIYALANTIRISHDA PLASTIK DEFORMASIYALANISH JARAYONLARI	1065
A.Xakimov, X.Xakimov	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ АВТОМОБИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ	1073
Касымова Нозима Омиловна	
OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI TA'MINOT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIY TAJRIBASI	1077
Bekjanov Dilmurad Yo'ldashovich	



AUDITORLIK TEKSHIRUVINI REJALASHTIRISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	1082
Saidova Sevara Abdimumin qizi	
TIBBIYOT XODIMLARI MEHNAT FAOLLIGINI RAG‘BATLANTIRISHNING IQTISODIY JIHATLARI.....	1089
Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich	
RAQAMLASHTIRISH — ILM-FAN INTEGRATSIYASI, INSTITUTSIONAL O‘ZGARISHLAR VA SANOAT RIVOJLANISHINING ASOSIY OMILI.....	1094
Umurzak Ablakulovich Radjabov	
FUQAROLIK JURNALISTIKASIDA GENDER MUVOZANATI: ILMIY YONDASHUVLAR TADRIJI	1101
Zakirova Oisha Vohid qizi	
AGLOMERATSIYA BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH BO‘YICHA XORIJIY MAMLAQATLAR TAJRIBASI VA UN DAN O‘ZBEKISTONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI	1109
Mardonov Shohruh Shuhrat o‘g‘li	
PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARIDA LOGISTIK JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH VA TA‘MINOT ZANJIRLARINI BOSHQARISH.....	1114
Nasimov Baxtiyor Vasiyevich	
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH BO‘YICHA DAVLAT DASTURLARI BAJARILISHIDA DAVLAT–XUSUSIY SHERIKCHILIKDAN FOYDALANISH	1122
Mirzaxalikov Bobir Baxtiyorovich	
ВЛИЯНИЕ ПАРАМЕТРОВ СЕТЕВОГО ТРАФИКА НА КАЧЕСТВО ОБСЛУЖИВАНИЯ В СОВРЕМЕННЫХ ТЕЛЕКОММУНИКАЦИОННЫХ СЕТЯХ: ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ	1127
Усманова Наргиза Бахтиёрбековна, Саиткамолова Гузаль Камильжон кизи	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA ORGANIK MAHSULOT ISHLAB CHIQRISHNING BARQAROR RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA.....	1141
Mamajonova Gulbaxor Toxirjon qizi	
MAHALLIY BUDJET IJROSINI TA‘MINLASHDA G‘AZNACHILIK TIZIMINING INSTITUTSIONAL ROLI VA SAMARADORLIGI	1145
Tangriyeva Farida Abdukurimovna	
O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA MEXANIKA MUHANDISLIGI TERMINLARINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI	1150
Mansurova Nafisa Qamariddinovna	
BUDJET SIYOSATI VA DAVLAT MOLIIYASI BARQARORLIGI: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI	1154
Karjavova Xurshida Abdumalikovna	



BUDJET SIYOSATI VA DAVLAT MOLIYASI BARQARORLIGI: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI

Karjavova Xurshida Abdumalikovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti, PhD

karjavova87@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida budget siyosati va davlat moliyasi barqarorligi masalalari tahlil qilinadi. So‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan fiskal islohotlar, davlat budjeti daromad va xarajatlarining muvozanatini ta‘minlash, soliq-budget siyosatini takomillashtirish hamda davlat qarzini boshqarish bo‘yicha olib borilgan chora-tadbirlarning samaradorligi ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda budget siyosatining o‘rni, barqaror davlat moliyasi tizimini shakllantirishdagi asosiy muammolar va ularning yechim yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Maqolada xalqaro tajriba hamda O‘zbekistonning milliy amaliyoti qiyosiy tahlil qilinib, istiqboldagi ustuvor yo‘nalishlar asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: budget siyosati, davlat moliyasi, fiskal barqarorlik, davlat budjeti, soliq siyosati, davlat qarzi, fiskal islohotlar, makroiqtisodiy barqarorlik, budget defitsiti, O‘zbekiston iqtisodiyoti.

Abstract. This article analyzes the issues of budget policy and public finance sustainability in the Republic of Uzbekistan. The effectiveness of fiscal reforms implemented in recent years, ensuring the balance of state budget revenues and expenditures, improving tax and budget policy, and managing public debt are scientifically covered. The role of budget policy in ensuring macroeconomic stability, the main problems in forming a stable public finance system and ways to solve them are also considered. The article provides a comparative analysis of international experience and the national practice of Uzbekistan, and provides justification for priority areas for the future.

Keywords: budget policy, public finance, fiscal stability, state budget, tax policy, public debt, fiscal reforms, macroeconomic stability, budget deficit, economy of Uzbekistan.

Аннотация. В статье анализируются вопросы бюджетной политики и устойчивости государственных финансов в Республике Узбекистан. Научно освещаются вопросы эффективности фискальных реформ, проведенных в последние годы, обеспечения сбалансированности доходов и расходов государственного бюджета, совершенствования налогово-бюджетной политики и управления государственным долгом. Также рассматриваются роль бюджетной политики в обеспечении макроэкономической стабильности, основные проблемы формирования устойчивой системы государственных финансов и пути их решения. В статье проводится сравнительный анализ международного опыта и национальной практики Узбекистана, обосновываются приоритетные направления развития на перспективу.

Ключевые слова: бюджетная политика, государственные финансы, фискальная устойчивость, государственный бюджет, налоговая политика, государственный долг, фискальные реформы, макроэкономическая стабильность, дефицит бюджета, экономика Узбекистана.

KIRISH

Davlat moliyasi va budget siyosati milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, ijtimoiy sohalarning samarali moliyalashtirilishi hamda makroiqtisodiy muvozanatni ta‘minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Globalizatsiya va bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning moliyaviy resurslarini oqilona boshqarish, budget daromadlari va xarajatlari o‘rtasida muvozanatni ta‘minlash, shuningdek davlat qarzi hajmini maqbul darajada ushlab turish iqtisodiy barqarorlikning eng muhim shartlaridan biridir.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan fiskal islohotlar davlat moliyasini samarali boshqarish, soliq-budget siyosatini takomillashtirish va budget jarayonlarini ochiqlik hamda shaffoflik asosida tashkil etishga qaratilgan. Xususan, soliq stavkalarining pasaytirilishi, budget mablag‘larining samaradorligi va natijadorligini oshirish, davlat qarzini boshqarish mexanizmlarining takomillashuvi budget siyosatining zamonaviy yo‘nalishlari sifatida e‘tirof etilmoqda.



Shu bilan birga, budget siyosati va davlat moliyasi barqarorligini ta'minlash jarayonida bir qator muammolar ham mavjud bo'lib, ular ichida soliq tushumlarining yetarli darajada shakllanmasligi, ayrim yillarda budget defitsiti yuzaga kelishi, tashqi qarz hajmining ortishi va ijtimoiy xarajatlarning ko'pligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, davlat moliyasi barqarorligi mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarining izchil amalga oshirilishini va investitsion muhitning jozibadorligini ta'minlaydi. Shu sababli, O'zbekiston tajribasida budget siyosatini chuqur tahlil qilish, mavjud muammolar va istiqbollarni baholash bugungi kunda ilmiy va amaliy ahamiyatga ega masalalardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Budget siyosati va davlat moliyasi barqarorligi masalasi bo'yicha respublika olimlari tomonidan qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Iqtisodchi olim, A. Vahobov o'z tadqiqotlarida davlat budjeti milliy iqtisodiyotning asosiy moliyaviy instrumenti ekanligini ta'kidlab, uning asosiy vazifasi iqtisodiy barqarorlikni saqlash va ijtimoiy sohalarni moliyalashtirish ekanligini qayd etadi [1].

Sh. Shodmonov esa davlat moliyasi barqarorligi uchun soliq-budget siyosatini takomillashtirishni, soliq bazasini kengaytirish va davlat qarzini samarali boshqarish muhimligini alohida e'tirof etadi [2].

B. Xodiyev o'z ilmiy ishlanmalarida O'zbekiston budget siyosati barqarorligiga tashqi omillar – global iqtisodiy inqirozlar, savdo balansidagi o'zgarishlar hamda inflyatsiya jarayonlarining bevosita ta'sirini tahlil qilib, fiskal xavfsizlikni mustahkamlash yo'llarini ko'rsatadi [3].

O. Jo'rayev tadqiqotlarida davlat moliyasi barqarorligini ta'minlashda budget intizomini kuchaytirish, budget xarajatlarini oqilona rejalashtirish va davlat xarajatlari samaradorligini oshirishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi [4].

M. Usmonov fikricha, davlat moliyasi tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish, ochiq ma'lumotlar bazasini shakllantirish hamda budget jarayonlarida jamoatchilik nazoratini kuchaytirish davlat moliyasining barqarorligiga xizmat qiladi [5].

Ushbu ilmiy qarashlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston olimlari budget siyosatini barqarorlashtirish omillari sifatida soliq islohotlari, budget intizomi, davlat qarzi boshqaruvi, shaffoflik va raqamlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratmoqdalar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida O'zbekistonda budget siyosatini shakllantirish va davlat moliyasi barqarorligini ta'minlash zarurati bo'yicha davlat budjeti daromad va xarajatlarining tarkibi, budget taqchilligi va davlat qarzi dinamikasi, soliqlar tushumining barqarorligi hamda fiskal intizom darajasi o'rganildi. Shu bilan birga, budget mablag'laridan foydalanish samaradorligi, moliya barqarorligiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar hamda xalqaro moliya institutlari tomonidan berilgan baholar tahlil qilindi.

Mazkur jarayonlarni tadqiq etishda dialektik va tizimli yondashuv, qiyosiy va solishtirma tahlil, statistik va dinamik tahlil, shuningdek guruhlash usulidan foydalanildi. Bu orqali O'zbekiston budget siyosatining kuchli va zaif tomonlari, mavjud imkoniyatlari va moliyaviy barqarorlikka tahdid soluvchi xavf-xatarlar aniqlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Budget siyosati — davlatning iqtisodiy siyosatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, mamlakat budjeti daromad va xarajatlarini shakllantirish hamda ulardan foydalanish orqali iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasidir. Uning asosiy mohiyati davlat moliyaviy resurslarini safarbar etish, ularni samarali taqsimlash va iqtisodiy hamda ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlarini moliyalashtirishdan iboratdir.

Budget siyosatining vazifalari ko'p qirrali bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- davlat moliyaviy barqarorligini ta'minlash;
- iqtisodiy o'sish uchun zarur moliyaviy manbalarni yaratish;
- aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish;
- investitsion muhitni yaxshilash va xususiy sektor faoliyatini qo'llab-quvvatlash;
- hududlar o'rtasida budget resurslarini adolatli taqsimlash.

Davlat moliyasi barqarorligi esa — budget daromadlari va xarajatlari o'rtasida muvozanatni ta'minlash, davlat qarzini maqbul darajada ushlab turish va fiskal intizomni mustahkamlash jarayoni sifatida izohlanadi. Moliyaviy barqarorlikning asosiy mezonlari sifatida budget defitsiti darajasi, davlat qarzining YalMdagi ulushi va soliqlar tushumining barqarorligi kabi ko'rsatkichlar xizmat qiladi.

O'zbekistonda budget siyosati mustaqillik yillarida bosqichma-bosqich shakllanib, mamlakat iqtisodiyotida yuz bergan strukturaviy o'zgarishlar va islohotlarga mos ravishda rivojlanib bordi. Mazkur jarayonni shartli ravishda uch asosiy bosqichga ajratish mumkin.

Birinchi bosqich (1991–2000-yillar) – mustaqillikning dastlabki davrida budget siyosati asosan iqtisodiyotning inqiroz holatidan chiqishini ta'minlash, ijtimoiy sohalarni moliyalashtirish va fiskal intizomni saqlashga yo'naltirilgan edi. Ushbu davrda davlat budgeti iqtisodiyotni to'liq qo'llab-quvvatlovchi asosiy manba sifatida xizmat qilgan.

Ikkinchi bosqich (2001–2016-yillar) – iqtisodiy o'sish jarayonida fiskal siyosatni barqarorlashtirish va budgetni diversifikatsiya qilish davri bo'ldi. Soliq stavkalari bosqichma-bosqich pasaytirildi, yagona soliq to'lovlari joriy qilindi, budget mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish choralariga alohida e'tibor qaratildi. Shu davrda davlat moliyasining nisbiy barqarorligi ta'minlandi.

Uchinchi bosqich (2017-yildan hozirgi davrgacha) – iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichi sifatida budget siyosati ochiqlik, shaffoflik va samaradorlik tamoyillari asosida rivojlanmoqda. 2017-yildan boshlab davlat budgeti ochiqligini ta'minlash uchun xalqaro standartlar joriy etildi, "Ochiq budget" portali ishga tushirildi, budget jarayonida parlament va jamoatchilik ishtiroki kengaytirildi.

Soliq-budget tizimida ham muhim o'zgarishlar amalga oshirildi. Jumladan, 2019-yildan boshlab soliq stavkalari sezilarli darajada pasaytirildi, jismoniy shaxslar daromad solig'i ikki pog'onali stavkadan yagona stavkaga o'tkazildi, qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi kamaytirildi. Bu o'zgarishlar fiskal yukni yengillashtirish va iqtisodiy faollikni rag'batlantirishga xizmat qildi.

Davlat qarzini boshqarish bo'yicha ham yangi yondashuvlar shakllandi. Xususan, 2020-yildan boshlab davlat qarzini boshqarishning o'rta muddatli strategiyasi qabul qilindi, tashqi qarzning YalMdagi ulushi 60 foizdan oshmasligi belgilandi. Bundan tashqari, xalqaro moliya tashkilotlari bilan hamkorlikda qarz mablag'laridan samarali foydalanish mexanizmlari joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida davlat budgeti daromadlari va xarajatlari sezilarli o'zgarishlarga uchradi. Budget siyosati mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, ijtimoiy dasturlarni qo'llab-quvvatlash hamda strategik investitsion loyihalarni moliyalashtirishda muhim vosita hisoblanadi.

2015–2024-yillar davomida budget daromadlari asosan soliq tushumlari, bojxona to'lovlari hamda davlat mulkidan olinadigan daromadlar hisobiga shakllangan. Shu bilan birga, davlat xarajatlari tarkibida ijtimoiy sohalar (ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya), infratuzilma loyihalari va innovatsion rivojlanish dasturlariga ajratilayotgan mablag'larning ulushi ortib bordi.

1-jadval. Budget daromadlari va xarajatlari dinamikasi jadvali (2015–2024-yillar)

Yil	Budget daromadlari (trln. so'm)	Budget xarajatlari (trln. so'm)	Budget taqchilligi (trln. so'm)	Taqchillikning YAlMga nisbati (%)
2015	40,6	42,1	-1,5	-0,4
2016	48,3	49,7	-1,4	-0,3
2017	62,2	65,1	-2,9	-0,5
2018	78,5	83,4	-4,9	-0,6
2019	102,6	110,2	-7,6	-0,8
2020	128,4	142,3	-13,9	-1,6
2021	156,7	173,5	-16,8	-2,0
2022	189,5	210,8	-21,3	-2,2
2023	223,4	248,9	-25,5	-2,4
2024	260,0	290,0	-30,0	-2,5

2015–2024-yillar dinamikasini ko'rsatadigan diagramma shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston davlat budgeti daromadlari va xarajatlari yil sayin o'sib bormoqda. Biroq xarajatlarning o'sish sur'ati daromadlar o'sishidan biroz yuqori bo'lgani sababli budget taqchilligi muttasil kengayib bormoqda.

2015–2017-yillarda daromad va xarajatlar nisbatan muvozanatda bo'lgan bo'lsa, 2018-yildan boshlab xarajatlarning keskin oshishi kuzatildi. Bu davrda ijtimoiy sohalar, xususan, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya tizimiga ko'proq mablag' yo'naltirilgan. 2019–2021-yillarda fiskal yukning ortishi, pandemiya sharoitida iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash xarajatlari budget taqchilligini yanada kuchaytirdi.



2022–2024-yillarga kelib esa xarajatlarning yuqori o'sishi davom etmoqda, bunda strategik infratuzilma loyihalari, raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonlari hamda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash dasturlarining kengayishi asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, daromadlarning o'sish sur'ati ham sezilarli bo'lib, soliq ma'murchiligi takomillashtirilgani va yangi soliq mexanizmlari joriy etilgani bunda muhim rol o'ynagan.

Umuman olganda, diagrammadan ko'rinadiki:

1. Daromadlar barqaror o'sib bormoqda, bu esa iqtisodiy faoliyat hajmining kengayishini anglatadi.
2. Xarajatlar sur'ati tezroq bo'lgani uchun budjet taqchilligi asta-sekin ortib bormoqda.
3. Budjet taqchilligi YalMga nisbatan oshib borishi davlat moliyasi barqarorligini ta'minlashda qo'shimcha choralarni talab qiladi.

Shunday qilib, diagramma davlat moliya siyosatining asosiy tendensiyasini yaqqol aks ettiradi: iqtisodiyot o'sish jarayonida bo'lsa-da, fiskal barqarorlikni saqlash uchun budjet daromadlari bazasini kengaytirish va xarajatlarni optimallashtirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston tajribasida budjet siyosati nafaqat fiskal barqarorlikni ta'minlash, balki iqtisodiyotning tarkibiy rivojlanishi va ijtimoiy sohalarning mustahkamlanishida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Bu siyosatning samaradorligi bir necha asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

1. Iqtisodiyotning barqaror o'sishiga ta'siri.

Budjet siyosati orqali iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari qo'llab-quvvatlanadi. Davlat investitsiyalari infratuzilma, energetika va transport tizimini rivojlantirishga yo'naltirilishi natijasida ishlab chiqarish hajmi kengaymoqda, tadbirkorlik faoliyati uchun sharoitlar yaxshilanmoqda. Shu bilan birga, soliq-budjet siyosatining yumshatilishi kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda, bu esa yalpi ichki mahsulotning barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlamoqda.

2. Ijtimoiy sohalarni moliyalashtirish natijalari.

Budjet mablag'larining muayyan qismi aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilmogda. Ta'lim tizimiga ajratilayotgan mablag'lar kadrlar salohiyatini oshirishga, sog'liqni saqlash sohasiga yo'naltirilayotgan xarajatlar aholining sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlashga, ijtimoiy himoya tizimi esa aholining ijtimoiy zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda. Buning natijasida inson kapitali sifat jihatidan rivojlanib, iqtisodiy samaradorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

3. Investitsion muhit va davlat xarajatlari samaradorligi.

Budjet siyosati orqali iqtisodiy barqarorlik va shaffoflik ta'minlanishi xorijiy investitsiyalar uchun qulay muhit yaratmoqda. Davlat xarajatlarning maqsadli yo'naltirilishi investitsion loyihalarning moliyaviy asoslanishini kuchaytirib, ularning samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari orqali yirik loyihalarning amalga oshirilishi iqtisodiyotning diversifikatsiyasiga hissa qo'shmoqda.

Davlat moliyasi barqarorligini ta'minlashda O'zbekiston tajribasini boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar amaliyoti bilan qiyoslash muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Chunki fiskal siyosatning samaradorligi ko'p jihatdan davlatning iqtisodiy tuzilmasi, budjet daromadlarining manbalari, xarajatlarning ustuvor yo'nalishlari va fiskal intizom darajasiga bog'liqdir.

1. Qozog'iston tajribasi.

Qozog'iston budjet siyosatini neft va gazdan tushadigan daromadlarga tayanib olib boradi. Mamlakatda Milliy jamg'arma faoliyat yuritib, xomashyo sektoridan tushgan daromadlar ushbu jamg'armaga yo'naltiriladi va iqtisodiy inqiroz davrlarida davlat moliyasi barqarorligini qo'llab-quvvatlash uchun ishlatiladi. O'zbekistonda esa tabiiy resurslar ulushi yuqori bo'lsa-da, bunday alohida jamg'arma tizimi hali to'liq shakllanmagan.

2. Gruziya tajribasi.

Gruziya budjet siyosatida fiskal intizom va soliqqa tortish tizimini soddalashtirishni ustuvor yo'nalish sifatida belgilagan. Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash maqsadida soliq stavkalari pasaytirilgan, budjet xarajatlari esa ijtimoiy sohalarga ko'proq yo'naltirilmoqda. O'zbekiston ham keyingi yillarda soliq stavkalarini optimallashtirish va fiskal shaffoflikni oshirish bo'yicha islohotlarni amalga oshirmoqda, ammo Gruziya tajribasida fiskal intizomning yuqori darajada ta'minlanganligi farqli jihatdir.

3. Turkiya tajribasi.

Turkiya davlat moliyasi siyosatini iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy himoyani uyg'unlashtirish tamoyiliga asoslangan holda olib bormoqda. So'nggi yillarda davlat qarzi hajmining pasaytirilishi, infratuzilma loyihalariga davlat-xususiy sheriklik asosida sarmoya jalb qilinishi fiskal barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonda ham ushbu yo'nalishda ijobiy qadamlar tashlanmoqda, biroq Turkiya tajribasiga nisbatan davlat qarzini boshqarishda tizimlilik hali yetarli darajada shakllanmagan.

Qiyosiy tahlil natijasi shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston budjet siyosati xalqaro amaliyotga mos ravishda rivojlanmoqda, ammo Qozog'istondagidek resurs daromadlarini boshqarish jamg'armasini yaratish, Gruziya misolida fiskal intizomni kuchaytirish va Turkiya tajribasida kuzatilgandek davlat qarzini strategik boshqarish yo'nalishlarini yanada rivojlantirish zarur.



XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, budget siyosati mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. So'nggi yillarda fiskal islohotlar natijasida budget daromadlari bazasi kengaydi, soliq stavkalari optimallashtirildi, xarajatlarning samaradorligi oshdi. Shu bilan birga, ijtimoiy sohalarni moliyalashtirish, infratuzilmani rivojlantirish va investitsion muhitni yaxshilashda budget siyosati hal qiluvchi rol o'ynadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda davlat moliyasi barqarorligi asosan uch omil – fiskal intizomni mustahkamlash, budget taqchilligini maqbul darajada ushlab turish va davlat qarzini oqilona boshqarish orqali ta'minlanmoqda. Shu bilan birga, xalqaro amaliyot bilan qiyosiy tahlil O'zbekiston uchun yangi yo'nalishlarni belgilash zarurligini ko'rsatadi. Jumladan, Qozog'iston tajribasida bo'lgani kabi resurslardan tushadigan daromadlarni boshqarish jamg'armasini yaratish, Gruzija tajribasidagi fiskal intizom va shaffoflikni kuchaytirish, Turkiya amaliyotidagi davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish muhimdir.

Umuman olganda, O'zbekiston budget siyosati iqtisodiy o'sish va ijtimoiy rivojlanishni ta'minlashda muhim o'rin egallaydi. Kelgusida uning samaradorligini oshirish uchun davlat xarajatlarining maqsadli yo'naltirilishini kuchaytirish, budget jarayonida raqamli texnologiyalarni keng tatbiq etish, fiskal shaffoflikni oshirish va xalqaro moliyaviy intizom standartlariga yaqinlashish zarur bo'ladi. Shu orqali mamlakat davlat moliyasi barqarorligini uzoq muddatli istiqbolda ta'minlab, iqtisodiy islohotlar natijadorligini oshirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Vahobov A. "Davlat moliyasi nazariyasi va amaliyoti". – Toshkent, 2018.
2. Shodmonov Sh. "Moliya va budget siyosati asoslari". – Toshkent, 2019.
3. Xodiev B. "Makroiqtisodiy barqarorlik va fiskal siyosatning o'ziga xos xususiyatlari". – Toshkent, 2020.
4. Jo'rayev O. "Davlat budjeti barqarorligi va uni ta'minlash omillari". – Toshkent, 2021.
5. Usmonov M. "Davlat moliyasini boshqarishda raqamli transformatsiya imkoniyatlari". – Toshkent, 2022.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100